

BOLANING KOGNITIV RIVOJLANISHI UCHUN PEDAGOGIK JARAYONDA RASMLI KITOBLARDAN FOYDALANISH

Bolalar adabiyoti – jamiyat taraqqiyotining muhim ehtiyoji. Pedagogik jarayonlarni rivojlantirar ekanmiz, “picturebook” – rasmlar kitoblari fenomeniga urg'u berishimiz davr talabidir. Aynan rasmlar kitoblari bolaning kognitiv rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Sifatli rasmlar kitob o'quvchini kognitiv va emotsional qo'zg'ata oladi, bilimlarni neyrofiziologik xususiyatlardan kelib chiqqan holda taqdim etadi. Bugun O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarning ayrimlari yoshlar va bolalar orasida kitobxonlikni rivojlantirishga qaratilgan bejiz emas. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-yilning 12-yanvarida “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida” Farmoyish bergan bo'lsa, 2017-yilning 13-sentabrida esa Prezidentning PQ-3271-son “Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida”gi Qarori qabul qilingan.

Rasmlar kitob – bolaning visual va verbal salohiyatini qo'zg'atuvchi va ularni birgalikda sintez qiluvchi kuchli pedagogik instrument [8]. Rasmlar kitoblari bolalarni matn va rasmlarga yangicha nazar bilan qarash orqali ma'no yaratishning tuganmas jarayoniga ilhomlantiradi [3]. Boshqa so'z bilan aytganda, rasmlar kitoblari bolalarda yangi so'z va ma'nolarni yaratish tajribasini shakllantiradi. Kreativlik, kollaboratsiya, empatiya, tanqidiy fikrlash kabi ko'nikmalarni shakllantirishda rasmlar kitoblari beqiyos samaraga egadir.

Rasmlar kitoblardagi matn ko'rmay turib, rasmlarga qarab to'qilgan hikoyalar keyinchalik haqiqiy hikoyadan mutlaqo farq qilishi tadqiqotlarda ko'rsatilgan [10]. Bu esa, o'z navbatida, rasmlar kitob har xil o'quvchiga turlicha ta'sir qilishi va samara berishi mumkinligini ko'rsatadi. Rasmlar kitobda jim turgan matn haqida rasm so'zlaydi, rasm gapirmaganini matn aytadi. Ya'ni, rasm ham, matn ham bir-biriga jim turgan narsalar haqida gapiradi. Undan tashqari, rasm matn o'zgartiradi, matn esa – rasimga berilayotgan ma'nolarni. Qaysidir ma'noda matn va rasm bir-birini tahlil qilishda chegara qo'yadi [11]. Muvaffaqiyatli chiqqan rasmlar kitobda rasm va matn bir-birini boyitib turadi. Har biri hikoyaga biror element qo'shadi, ularning biri bo'lmaganida esa hikoya mutlaqo o'zgacha bo'ladi. Masalan, rasmlar kitob illustratrlari rasmlar kitobda ishlatiladigan ranglar yordamida

ramziy ma'nolarni, kayfiyatni, muhimlikni, rangga munosabatni ochib beradilar [1]. Ba'zida rangga bo'lgan munosabat bahsi bo'lib, tahlil qilishni taqozo etadi. Qafasdan qo'yib yuborilgan qushlar esa illustratsiyalar yordamida “erkinlik”ni ma'juziy namoyon qilishda foydalaniladigan usullardan biridir.

Miya ikki yarimshardan iborat. Rasmlar kitob o'qish davomida miyaning chap yarimshari matn, o'ng yarimshari rasmni tahlil qiladi [2]. Shunda so'zlar detallarni berib, keyin yaxlitlikka olib kelsa, rasmlar, aksincha, yaxlitlikdan detallarga nazarimizni qaratadi. Rasmlar kitobda matn kognitiv xarita yasaydi, u xarita orqali biz rasmni o'rganamiz va o'zimizga kerakli detallarni ajrata olamiz. Oddiy qilib aytganda, mushuk chizilgan rasm tagida “Bu mushuk” deyilgani bilan “Bu mening do'stim, Qoravoy” deyilganida, bir xil rasm turlicha qabul qilinadi [5]. Rasmlar kitoblari ta'lim jarayonida o'quvchilar bilan tanqidiy va tahliliy suhbatlar olib borishda pedagoglar uchun samarali vosita hisoblanadi [1].

Bola rasmlar kitob o'qiyotganida, kognitiv jihatdan, unda 3 ta faoliyat sodir bo'ladi: 1) matn tushunish, ya'ni lingvistik qobiliyat; 2) rasmni tushunish, ya'ni tasviriy qobiliyat; 3) bu ikki qobiliya integratsiyasi.

Rasmlar kitoblarning matn va rasm munosabatidan kelib chiqqan holda ajratilgan turlari (Golden bo'yicha) [6]:

1. **Simmetrik rasmlar kitoblari** (1-rasm). Simmetrik rasmlar kitoblarda rasm va matn o'zaro mustaqil hikoya vazifasini o'taydi. Ularning o'zaro munosabati yoki bahsi esa o'quvchida yangi talqinni yaratadi.



1-rasm.

“Sumalakning sehrli toshi”, Dinara Muminova.

2. Matni tushunish uchun rasm. Bunda matn, asosan, rasimga bog'liq bo'ladi (2-rasm).



2-rasm.

“Tug'ilgan kunimga sovg'a”, Dinara Muminova.


3. Rasm matni kuchaytirib, murakkablashtiradi (3-rasm).



3-rasm.

“Tomchi qayerga ketdi?”, Dinara Muminova

4. Matn so'zlaydi, rasm esa tanlangan holda qabul qilinadi (4-rasm).



4-rasm.

“Ajoyib kaktus”, Dinara Muminova.

5. Rasm so'zlaydi, matn esa tanlangan holda qabul qilinadi (5-rasm).



5-rasm.

“Quyoshning sehirli botishi”, Dinara Muminova.

Nodelman bu borada Golden bilan bahslashib, “rasm shunchaki matn mazmunini yetkazadi, shuning uchun aynan matn rasm qanday qabul qilinishiga ta'sir qiladi”, deydi [12]. Buning isboti sifatida u kitobning muqovasini keltiradi. “O'quvchi muqova rasmni ko'rib kitob haqida bir fikrga keladi, lekin uning nomini o'qigach, fikri mutlaqo o'zgarishi mumkin bo'ladi. Demakki, matn rasm mazmunini keskin chegaralaydi”, deydi u.

Rasmlı kitob matn va rasm orasidagi “o'zaro o'yin”dan tashkil topgan bo'lib, o'quvchidan mana shu o'yinni talqin qilishni talab etadi [7]. Bu esa kuchli kognitiv faoliyat bo'lib, ba'zida rasmlı kitoblar bolalarda savol uyg'otadi. Bu savollar bolaning ichki dunyosi, tajribasi, tasavvuri va orzulari bilan hikoyani bog'laydi [4]. Biz faqat o'rgangan narsani ko'ra olamiz va tushuna olamiz.

Rasmlı kitoblarnı quyidagi 4 toifaga ajratish mumkin [12]:

1. O'quvchilar matndan ma'no ko'ra olmaydi, ular uni yaratadi.
2. Matnda yuzaki va chuqur ma'no bo'ladi.

3. Yuzaki ma'no matn nima anglatayotganini ko'rsatasa, chuqur ma'no matn nimani nazarda tutayotganini namoyon qiladi.

4. Matn bir qancha interpretatsiyaga ega.

Yuqoridagi xususiyatlar, hajmi kichik bo'lsa-da, rasmlı kitoblarnı qayta-qayta o'qishni taqozo etadi. Chunki rasmlı kitobni o'qiyotganda biz hech qachon barcha ma'nolarnı yoki matn va rasmning barcha munosabatlarini bir ko'rishda anglay olmaymiz [9]. Lemkening tadqiqotiga ko'ra, rasmlı kitoblarda ko'plab ma'nolarnı ifodalash imkoni bor [13]. Chunki rasmlı kitoblar barcha turdagi o'qishga imkon yaratib, ko'plab hikoyalar yuzaga kelishiga sharoit yaratadi.

Rasmlı kitoblarnı orqali pedagog hatto maktabgacha yoshdagi bola bilan dunyo, ya'ni atrof-muhit haqida, atrofda odamlar haqida va bolaning o'zi haqida katta suhbat qurishi mumkin bo'ladi. Dunyoni anglashimiz vaqt va makonni anglash orqali yuz beradi. Rasmlı kitoblar aynan dunyoni anglashda kognitiv faoliyatimizni boyitadigan muhim fenomen bo'la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Albers P. Theorizing visual representation in children's literature // *Journal of Literacy Research*, 2008, 40(2), 163–200.
2. Albright L.K. Bringing the Ice Maiden to life: Engaging adolescents in learning through picture book read-alouds in content areas // *Journal of Adolescent & Adult Literacy*, 2002, 45, 418–428.
3. Arizpe E., Styles M. *Children Reading Picturebooks: Interpreting visual texts* (2nd ed.) // Routledge, 2015. <https://doi.org/10.4324/9781315683911>.
4. Beckett S.L. *Crossover Picturebooks: a genre for all ages*. – Taylor & Francis, 2013.
5. DeLoache J.S., DeMendoza O.A. Joint picturebook interactions of mothers and 1-year-old children // *British Journal of Developmental Psychology*, 1987, 5(2), 111–123. <https://doi.org/10.1111/j.2044-835X.1987.tb01047.x>.
6. Golden Joanne M. *The narrative symbol in childhood literature: Explorations in the construction of text*. – Berlin: Mouton de Gruyter, 1990.
7. Mari'a Cecilia Silva-Di'az. Picturebooks, lies and mindreading. Gretel Research Group, Universitat Auto'noma de Barcelona, Spain // *Nordic Journal of ChildLit Aesthetics*, Vol. 6, 2015.
8. Muminova D. Pedagogik jarayonda rasmi kitoblar fenomeni // *Til va adabiyot ta'limi*, №10, 2023.
9. Mohr K.A.J. Children's choices for recreational reading: a three-part investigation of selection preferences, rationales, and processes // *Journal of Literacy Research*, 2006, 38(1), 81–104. https://doi.org/10.1207/s15548430jlr3801_4.
10. Nikolajeva M., Scott C. *How picturebooks work* (1st ed.). – Routledge, 2001. <https://doi.org/10.4324/9780203960615>.
11. Nikolajeva M. *Reading for learning: cognitive approaches to children's literature*. – John Benjamins, 2014.
12. Nodelman P. *Words about pictures: the narrative art of children's picturebooks*. – Athens, Georgia: University of Georgia Press, 1988.
13. Lemke J.L. *Multiplying meaning: literacy in multimedia world*. 1993. <https://eric.ed.gov/?id=ED365940>.

Xurshid SARIMSOKOV,
O'zbekiston Milliy universiteti
Xorijiy filologiya fakulteti dotsenti, PhD

SPORTGA DOIR SHARHLARDA STILISTIK BIRLIKLARNING ANTONIMIK VA SINONIMIK XUSUSIYATLARI

Sharh jarayonida narsa-hodisa, harakat-holat, belgi va xususiyat sharhlovchi tomonidan turli nutqiy yo'llar bilan ifodalanadi. Sharhlash jarayonida eng ko'p qo'llaniluvchi jarayon vaziyat yoki holatni bir-biriga zidlash, ularning o'zaro o'xshash va farqli tomonlarini qiyoslab aniqlash hodisasidir. Shu ma'noda sharhlash, faoliyatimizning muayyan qismi zidlanishga, ya'ni antonimik jarayonga asoslangan bo'lib, biror narsani aytishimiz bilan uning ziddi ham xayolimizga keladi.

Umumadabiy leksikaning muloqot qamrovi keng bo'lgani bilan maxsus leksikada antonimiyaning rivojlaniishi va faol qo'llanishi nisbatan cheklangan. Maxsus leksika tarkibidagi antonimiya umumadabiy tildagi kabi u yoki bu tarzda emotiv-ekspressiv va stilistik xususiyatlarni nazardan chetda qoldirmagan holda semantik guruhlariga bo'linmaydi.

Tadqiqotimiz tahlillari shuni ko'rsatmoqdaki, sport sohasida termin sifatida xoslangan ko'chma ma'noli leksik birliklar tarkibida antonimiya hodisasi ham uchraydi. Ular son jihatdan kam bo'lishiga qaramay nutqiy birliklar tarkibida mavjuddir. Jumladan, *the special one* va *the normal one* kabi frazeologik birliklar sport jurnalistlari tomonidan qo'llanilmoqda.

The special one (tarjimada bir necha bor o'zgacha odam yoki benazir sifatida qo'llanilgan) – portugaliyalik

murabbiy Joze Mourinioga Angliyaning Chelsi klubida ishlab yurgan paytlari berilgan nom. Masalan, *Why is Jose Mourinho the Special One?* (Sean Gibson. telegraph.co.uk) – Nima uchun Joze Mourinio benazir?; *The normal one* (tarjimada, oddiy sifatida qo'llanilgan) – germaniyalik mutaxassis Yurgen Klopp Angliya chempionatiga kelgandan so'ng Joze Mourinioga munosib raqib sifatida unga berilgan nom. Masalan, *The 48-year-old coach is declared 'The Normal One' in his first press conference at Anfield* (Callum Devis. telegraph.co.uk) – 48 yoshli murabbiy Enfilddagi dastlabki anjumanda oddiy (shaxs) deb e'lon qilindi. Anglashiladiki, sharh jarayonida muayyan ma'noga ega tushunchalarning vujudga kelishi ushbu tushunchaning ijobiy yoki salbiy taraflarini ifodalovchi yana bir tushuncha paydo bo'lishiga sabab bo'ladi.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, sport sohasida termin sifatida xoslangan ko'chma ma'noli leksik birliklar tarkibida sinonimiya hodisasi ham uchraydi. Ular ham antonimiya kabi, son jihatdan juda kam bo'lishiga qaramasdan, nutqiy birliklar tarkibida mavjuddir. Misol uchun, *Wonder kid* ko'chma ma'noli leksik birlik termin sifatida xoslanganda yosh sportchilarga nisbatan *juda iqtidorli bola* ma'nosida qo'llaniladi. Xuddi shu ma'noda, o'zbek tiliga *vunderkind* ko'rinishida xoslanayapti: "Real"